

TASHKILOTDA XODIMLARNI NAZORAT QILISH VA AUDIT QILISH STRATEGIYASI

Muhayyo Abdullayeva

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 1- bosqich magistranti

muhayyoabdullayeva5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tashkilotlarda xodimlarni nazorat qilish va audit qilish strategiyasining muhim jihatlarini o'z ichiga oladi. Samarali nazorat va audit tizimini yaratish uchun izchil qadam-qadam yondashuv taqdim etiladi, bu tizim tashkilotning maqsadlariga erishilishiga, xodimlar samaradorligining oshirilishiga, xatoliklar va noqonuniy harakatlarning oldini olishga yordam beradi. Maqolada nazorat va audit mexanizmlari, ishlab chiqish jarayonlari, amalga oshirish va yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar mavjud.

Kalit so'zlar: Xodimlarni nazorat qilish, Tashkilotlarda audit, Nazorat tizimlari, Audit strategiyasi, Xodimlar samaradorligi, Risklarni boshqarish, Ichki nazorat, Moliyaviy audit, *Kopnopamy boshqaruv*. *Axloqiy boshqaruv*, *Zamonaviy nazorat usullari*

Abstract: This article covers the important aspects of the strategy of monitoring and auditing employees in organizations. A consistent step-by-step approach to creating an effective control and audit system is presented, which helps to achieve the organization's goals, increase employee efficiency, and prevent errors and illegal actions. The article contains practical recommendations for control and audit mechanisms, development processes, implementation and improvement

Keywords: Personnel control, Organizational audit, Control systems, Audit strategy, Employee performance, Risk management, Internal control, Financial audit, Corporate governance. *Ethical management*, *Modern methods of control*

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные аспекты стратегии мониторинга и аудита сотрудников в организациях. Представлен последовательный поэтапный подход к созданию эффективной системы контроля и аудита, которая помогает достигать целей организации, повышать эффективность работы сотрудников, предотвращать ошибки и противоправные действия. Статья содержит практические рекомендации по механизмам контроля и аудита, процессам разработки, внедрения и совершенствования

Ключевые слова: Контроль персонала, Организационный аудит, Системы контроля, Стратегия аудита, Эффективность работы сотрудников, Управление рисками, Внутренний контроль, Финансовый аудит, Корпоративное управление. *Этический менеджмент*, *Современные методы контроля*

Kirish

Samarali tashkilotni boshqarishda xodimlar faoliyatini nazorat qilish va audit qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xodimlarni nazorat qilish va audit qilish tashkilotlarning

samaradorligini oshirish, ichki nazoratni kuchaytirish va xavf-xatarlarni kamaytirish uchun muhimdir. Bu jarayon, tashkilotning strategik maqsadlariga erishishida asosiy omil sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonlar tashkilotning maqsadlariga erishilishini ta'minlash, xodimlar samaradorligini oshirish, xatoliklar va noqonuniy harakatlarni oldini olishga yordam beradi. Auditning o'ziga xos predmeti va ob'ektlari mavjud. Audit maxsus fan sifatida ma'lum maqsadga qaratilgan va bir qancha vazifalarni bajaradi. Auditning predmeti xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, ularning faoliyatlari hisoblanadi. Ma'lumki korxonalar o'z ustavlariga asosan faoliyat yuritadilar. Ushbu faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan foydalaniladi. Korxonalarning aktivlari doimiy ravishda daromad, foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Lekin, ushbu natijalarga faqat qabul qilingan qonun-qoidalarga to'liq amal qilgan holda erishish mumkin. Korxonalar o'z faoliyatlarida me'yoriy hujjatlarga, qabul qilingan qoidalarga rioya qilishlari shart. Har bir korxona o'zining hisob siyosatini belgilaydi va unga asosan hisob-kitoblarni yuritadi. Audit paytida korxona faoliyatining qabul qilingan qonunlarga monandligi, hisob ma'lumotlarining korxona moliyaviy-xo'jalik ko'rsatkichlariga muvofiqligi tekshiriladi. Auditning predmeti taftishdan o'laroq korxonaning faqat bir faoliyat turi yoki birgina ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Misol uchun, savdo faoliyati, ishlab chiqarish faoliyati yoki bo'lmasa pul mablag'lari, tovarlar, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta operatsiyalari va boshqalar. Auditning predmetiga korxona moliyaviy hisobotning to'g'riligi, hisob siyosatiga, soliq siyosatiga to'liq amal qilinishlikni tekshirish ham kiradi. Auditning aniq predmeti yoki ob'ekti mijoz bilan tuzilgan shartnomaga bevosita bog'liq bo'ladi. Bozor sharoitida korxonalarning faoliyati kengayib har tomonlama rivojlanmoqda. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida auditning asosiy ob'ektlari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak deb hisoblaymiz:

- mulklarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan opretsiyalar;
- moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko'rsatkichlar (xarajatlar, daromadlar, foyda (zararlar);
- valyuta operatsiyalari;
- tashqi iqtisodiy faoliyat, shu jumladan xorijiy sarmoyalar;
- hisob-kitob operatsiyalari (debitorlik, kreditorlik qarzlari);
- qimmatbaho qog'ozlar bilan bog'liq jarayonlar.

Shunday qilib auditning predmeti va ob'ektlari quyidagi tartibda guruhlash mumkin: xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatlari; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning aktivlari va majburiyatlari; xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning alohida jarayonlari (operatsiyalari). Auditning asosiy predmeti bo'lgan korxonalarning faoliyatlari quyidagilarga bo'linadi: ishlab chiqarish faoliyati; savdo faoliyati; xizmat ko'rsatish faoliyati. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatlari o'z navbatida quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: ta'minot jarayoni; ishlab chiqarish jarayoni; realizatsiya jarayoni. Jarayonlar xo'jalik operatsiyalari orqali sodir bo'ladi. Xo'jalik jarayonlarning auditi ma'lum ko'rsatkichlarni tekshirish orqali amalga oshiriladi. Ushbu ko'rsatkichlarning ikkiga bo'lish mumkin: miqdor ko'rsatkichlari; sifat ko'rsatkichlari. Miqdor ko'rsatkichlar - ishlab chiqarilan mahsulotlar, sotilgan tovarlar, bajarilgan xizmatlar hajmidan iborat. Sifat ko'rsatkichlar - faoliyat yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, foyda, mehnat unumdorligini ifodalaydi. Korxonalarning alohida jarayonlari va ko'rsatkichlari auditning ob'ektlari hisoblanadi. Auditning predmetiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga dolzarb

masalalarda konstalting xizmatlarini ko'rsatish ham kiradi. Auditorlar va auditorlik tashkilotlari korxonalarga o'zaro tuzilgan shartnomalarga asosan «Biznes reja» tuzish, hisob siyosatini belgilash, soliqlarni to'g'ri hisoblash, mahsulot tannarxini aniqlash, moliyaviy hisobot tuzish kabi masalalarda yaqindan yordam beradilar. Auditning o'ziga xos usullari va uslubi mavjud. Bu usullar auditning xususiyatlaridan kelib chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Akbarov R. - Xodimlarni nazorat qilish jarayonlariga oid tadqiqotlari, ularning samaradorligini oshirish va tashkilot ichidagi muammolarni hal etish bo'yicha tavsiyalar keltiradi. Mamatqulov D. - Auditorlik nazorati sohasida chuqur tadqiqotlar olib borgan bo'lib, xodimlarning ish samaradorligi va uning auditga ta'siri haqida keng qamrovli ma'lumotlar beradi. Abduraxmonov S. - Ichki audit orqali xodimlarni nazorat qilish моделини ishlab chiqib, audit jarayoniga xodimlarning faoliyatini qanday baholash va nazorat qilishni o'rganadi. Karimov A. - Xodimlar faoliyatini baholash tizimlarini yaratish, ularning ishlashini nazorat qilish va strategik rejalashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Robert Simons: "Leaning to Manage Risk" va boshqa asarlarida risklarni boshqarish va ichki nazorat tizimlarini qurishga oid muhim hissa qo'shgan. Uning ishlari xodimlar xatti-harakatlariga bog'liq bo'lgan xatarlarni aniqlash va ularni boshqarishga qaratilgan.

COSO (The Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission): COSO framework ichki nazorat bo'yicha umumiy qabul qilingan standart bo'lib, uning printsiplari xodimlar faoliyatini nazorat qilishda keng qo'llaniladi. James Allender: Ichki audit va risklarni boshqarish bo'yicha ko'plab asarlar muallifi. Robert Kaplan va David Norton: Balanced Scorecard modeli xodimlar samaradorligini har tomonlama baholashga yordam beradi va nazort qilishni yaxshilashga hissa qo'shadi. Anthony Atkinson: Ijtimoiy adolat va tengsizlik bo'yicha tadqiqotlari xodimlarni rag'batlantirish va adolatli mukofotlash tizimlarini yaratishga yordam beradi, bu esa nazort qilish strategiyasining samaradorligini oshiradi. Axloqiy boshqaruv va korporativ ijtimoiy javobgarlik: Michael Jensen: Agentlik nazariyasi va korporativ boshqaruv bo'yicha tadqiqotlari xodimlarni nazorat qilish va ularning axloqiy xatti-harakatlarini ta'minlashga oid muhim masalalarni ko'taradi. R. Edward Freeman: Stakeholder nazariyasi korxonaning barcha manfaatdor tomonlarining manfaatlarini hisobga olgan holda boshqarilishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu esa xodimlarni nazorat qilish strategiyasiga ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun ishlab chiqilgan metodologiya quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tadqiqot maqsadini aniqlash: Xodimlarni nazorat qilishning samaradorligini o'rganish.
2. Ma'lumot to'plash: Anketalar, intervyular va to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvlar yordamida olingan ma'lumotlar.
3. Analiz: To'plangan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilinadi.
4. Natijalarni taqdim etish: Olingan natijalar bo'yicha hisobot tayyorlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Tahlil jarayoni davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, xodimlarni nazorat qilish jarayonida quyidagi muhim aspektlar mavjud:

1. Ochiqlik va aniq aloqa: Xodimlar va rahbariyat o'rtasida ochiq va aniq aloqa o'rnatilishi samarali natijalarni ta'minlaydi.

2. Nazorat mexanizmlari: Har bir xodimning ish faoliyatini nazorat qilishda individual yondashuvlar samaradorligini oshiradi.

3. Uzoq muddatli rivojlanish: Xodimlarni nazorat qilish strategiyalari uzoq muddatda tashkilotning o'sish va evolyutsiyasiga ta'sir qiladi.

Audit ham boshqa bir qator amaliy sohalar kabi o'z predmeti va shu predmetni o'rganish uslubiyatiga ega. Ushbu sohaning tekshiruv predmeti bo'lib, birinchi navbatda, korxonaning moliyaviy hisobotlari hisoblanadi. Mustaqil auditor ushbu moliyaviy hisobotlarning belgilangan qonuntalablari asosida tuzilgani va shu korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va pul oqimlari to'g'risida to'g'ri va to'liq ma'lumot berayotganligi yuzasidan o'z likrini bildirishi uchun qo'llaydigan chora- tadbirlari majmuyi audit tekshinivining uslubiyati hisoblanadi. O'z navbatida, shuni ta'kidlash joizki, moliyaviy hisobotlar bir necha varoq qog'ozdan tashkil topgan hujjat bo'lsa-da, ulaming ortida korxonalarda uzoq davr mobaynida sodir etilgan minglab, hattoki millionlab operatsiyalar natijalari turadi. Ulaming ma'lum xususiyatlaiga ko'ra guruhlashtirilishi va umumlashtirilishi natijasida esa moliyaviy hisobotlar shakllanadi. Demak, moliyaviy hisobotlar auditini aslida korxonada sodir bo'lgan minglab operatsiyalar auditini anglatadi. Shun- day ekan. auditning asl predmeti korxona moliyaviy hisobotlarida guruhlashtirilgan va umumlashtirilgan operatsiyalardir. Ushbu ope- ratsiyalar korxonalar faoMyat turiga ko'ra turlicha, ammo takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'ladi. Korxonalar o'z faoliyat turiga ko'ia quyidagi asosiy uch guruhga bo'linadi: 1. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar. 2. Savdo korxonalari. 3. Ishlab chiqaruvchi korxonalar. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda faoliyat jarayonini quyidagicha tasvirlash mumkin:



Ushbu chizmadan shu narsa ayon bo'ladiki, xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda audit predmeti to'rt asosiy guruhdan tashkil topgan (Xarajatlar; Xizmat ko'rsatish; Debitorlik qarzlari; Daromad). Auditor tekshiruv jarayonida korxonaning shu to'rt bosqichda sodir etilgan operatsiyalarini mustaqil tekshirib chiqadi va tekshiruv natijasini korxona taqdim etgan moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan o'zaro taqqoslaydi.

Auditorlik faoliyati o'z maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilangan nazariy asoslariga ega. Bu nazariy asoslar quyida keltirilgan postulatlariga asoslanadi: 1. Auditorlik tekshiruv moliyaviy hisobotlar va moliyaviy axborotlar tekshirilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarga asoslanadi degan faraz bilan o'tkaziladi.

Buning uchun buxgalteriyadagi har bir operatsiya tegishli hujjat bilan rasmiylashtirilishi lozim. Auditor shu hujjatlarni tekshirish orqali moliyaviy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlar to'g'ri ekanligiga ishonch hosil qiladi. Endi faraz qilaylikki, bunday hujjatlar mavjud emas. Bu holda auditor tekshiruv o'tkazish imkoniga ega emas. Chunki moliyaviy hisobotlarda istalgan ma'lumot keltirilgan bo'lishi, bu ma'lumotlar ham to'g'ri, ham noto'g'ri axborotni aks ettirishi mumkin. 2. Auditor va mijoz rahbariyati o'rtasida qisqa muddatli kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin, ammo uzoq muddatli kelishmovchiliklarga yo'l qo'yilmasligi lozim. Bunga sabab, bu ikki guruh umumiy yagona maqsadga ega bo'lishlari shart. Bu maqsad - moliyaviy hisobotlarda to'g'ri, ishonchli ma'lumot aks ettirilishidir. Chunki jamiyatning kelgusi farovonligi, investorlarning to'g'ri qaror qabul qilishlari va resurslarning samarali taqsimlanishi ishonchli moliyaviy axborotga bog'liq.

3. Samarali ishlab chiqilgan va o'rnatilgan ichki nazorat tizimi mijoz tomonidan moliyaviy hisobotlarda xato yoki firibgarliklarni oldini olish imkonini beradi. Ichki nazorat tizimiga ega bo'lmagan korxona moliyaviy hisobotlarida aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad, xarajat bo'yicha noto'g'ri ma'lumot kiritilgan bo'lish ehtimoli yuqori bo'ladi. 4. Moliyaviy hisobotlarni Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari (BHMS)ga asosan tuzilishi ularda keltirilgan ma'lumotlarning to'g'ri va to'liq bo'lishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, vaqt sinovidan o'tgan holda uzoq yillardan buyon amalda bo'lgan bu audit postulatlarini zamonaviy auditning nazariy asoslarini tashkil etadi.

XULOSA

Korxonada audit o'tkazish mutaxassis auditoridan ma'lum bilimni va ish tajribasini talab qiladi. Bozor sharoitida turli mulkka asoslangan korxona va firmalarning faoliyatlari birbiridan farq qiladi. Ularning so'nggi moliyaviy natijalari ham turli operatsiyalar va omillar tufayli shakllanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining qabul qilingan qonun-qoidalariga monandligini ekspertiza qilish, baholash, asosli xulosalarga kelish va tavsiyalar berish auditoridan ko'p bilim va saviyani talab qiladi. Audit natijasida ishonchli xulosaga kelish ushbu jarayonda qo'llaniladigan usullarga bevosita bog'liqdir. Ushbu usullarning turi ham ko'p. Audit uslubining asosida mantiqiy mulohaza, ilm-fan yutuqlari, xo'jalik jarayonining o'zgaruvchanligi yotadi. Korxonalar faoliyatidagi operatsiyalar tufayli mablag'lar bir shakldan boshqa shaklga o'zgarib turadi. Ushbu jarayon natijasida korxona samara (naf) olishi kerak. Bu samara, o'z navbatida qabul qilingan qonun-qoidalariga to'liq amal qilingan holda erishilgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarov, R. (2015). "Tashkilotlarda xodimlarni nazorat qilish: nazariy va amaliy aspektlar." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
2. Mamatqulov, D. (2018). "Auditorlik nazorati va uning tashkilot samaradorligiga ta'siri." Tashkent: O'zbekiston Milliy universiteti.
3. Abduraxmonov, S. (2020). "Xodimlarni ichki audit orqali nazorat qilishning samaradorligi." Tashkent: O'zbekiston moliya institutida dissertatsiya.
4. Karimov, A. (2019). "Xodimlar faoliyatini baholash va nazorat qilish tizimlari." Tashkent: O'zbekiston davlat iqtisodiyot universiteti.
5. Omonov, E. (2021). "Audit jarayonida xodimlarni nazorat qilishning asosiy prinsiplari." Tashkent: Savdo-sanoat palatasi nashriyoti.
6. Qodirov, M. (2017). "Xodimlar nazorati: nazariy asoslar va amaliyotchilar uchun qo'llanma." Tashkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.
7. Usmonov, I. (2016). "Auditorlik faoliyati: xodimlarni nazorat qilish va sifatni ta'minlash." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Auditorlar palatasi.
8. Gulomov, Y. (2019). "Korporativ boshqaruv va xodimlarni nazorat qilish strategiyalari." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi.
9. Xolmirzaev, J. (2022). "Xodimlarni baholash tizimi va audit: amaliy qo'llanma." Tashkent: O'zbekiston davlat iqtisodiyot universiteti.
10. Saidov, T. (2023). "Tashkilotlarda ichki nazorat va audit faoliyatlari." Tashkent: O'zbekiston moliya institutining ilmiy nashri.